

Fidoyilik –
Vatanga xizmat demak!

Zarafshon

1913-yil aprel oyidan chiqqa boshlagan



SHAYBONIY lar dahmasining hududi obodonlashtiriladi

Yaqinda viloyat hokimi vazifasini bajaruvchi Adiz Boboyev ziyojolar va tarixchi olimlar bilan uchrashuvda Samarcandning tarixini chuqur o'rganish, Amir Temur saroyi – Ko'ksaroyning qadimiy o'rni, shayboniylar davlati tarixini kompleks tadqiq qilish, tarixiy obyektlarni ilmiy o'rganish va restavratsiya qilish bo'yicha aniq vazifalarni belgilab bergan edi.

Viloyat rahbari mas'ul mutasadilar va tarixchi olimlar bilan birga shayboniyarning Registon maydoniy huddidi joylashgan dahmasini ziyorat qildi. Mutaxassislar o'rta as me'moriy yodgorligining tarixi haqidagi batafsil ma'lumot berdi.

Ta'kidlanishchida, o'z davrida Shayboniyxon madrasasi hovlisdida barpo etilgan daxmada Xon va uning onasi, shayboniy sultonlar hamda malikalar dafn qilingan. Sovet davrida shaharni obodonlashtirish bahonasida madrasa buzbiz tashlangan, dahoma esa 1960-1962 yillarda Registon maydonidagi Tillakori va Sherdor madrasalarini yaqiniga ko'chirilgan. Dahma ustida 36 ta qabrtosh mavjud.

- Shayboniylar sulolasini tarixini

o'rganish va targ'ib qilish maqsadida Shayboniylar dahmasi hududini obodonlashtirish taklifini bergan edim, - deydi Registon ansamblini direktori Xonqul Samarov. - Viloyat hokimi va mutaxassislar taklifini qo'llab-quvvatladi. Jumladan, dahma atrofida ma'lumotlar taxtasini o'rnatish va "QR-kod"li qilib joylashtirish, tilovat qilish uchun o'tirg'ichlar o'rnatish, dahma yonida XIX asrda qurilgan masjid qoldiglari, ya'ni saqlanib qolgan poydevor qismi konservatsiya qilinagan bo'ldi.

Viloyat rahbari mas'ullarga dahma hududini obodonlashtirish, ko'chat ekish va sayyohlarga qulaylik yaratish borasida aniq vazifalarni belgilab berdi.



Qishning so'nggi oyi o'tib borarkan, bir necha yilda beri mavsumda ko'pchilikni bezovta qilayotgan muammoga yana bir bor e'tibor qaratishga qaror qildik. Toki, hech bo'lmasa, kelgusi mavsumda biror cheklov borasida qaror chiqarishdan oldin, tegishli idoralar masalaning barcha tomonlarini o'ylab ko'rishsin.

Harorat keskin pasaygan kunlarda avtomobilarga gaz to'ldirish kompressor stansiyalari (metan "zapravka"lar) cheklovlardan ishlamay qolishi hammaga ma'lum. Energetika vazirligi OAVda bu "aholini ko'proq tabiy gaz bilan ta'minlash maqsadida" qo'llanganini ma'lum qilib keladi. Biroq bu cheklovlardan amalga oshirilarken, shahar va qishloqlardagi muhim xizmatlar — yo'lchisi tashish, chiqindilarni olib ketish bilan shug'ullanuvchi korxonalarining transportlari qanday ishlaydi degan savol tug'iladi.

Yaqinda ana shunday cheklov o'rnatalgan kunlarda "Toza hudud" DUK tomonidan xizmat ko'rsatiladigan qator hududlarda chiqindilarning o's vaqtida olib ketilmayotganiga guvoh bo'ldi. Haydovchilaridan biri bilan suhatda shu kunlarda zo'rg'a "zapravka" qilayotganini aytgandi.

Avalroq viloyat Kengashi sessiyasida deputat Shohrux Jo'aqulov viloyat hokimi o'rnbosariiga shu muamma bo'yicha savol berib, "Maroqand obod" korxonasi tomonidan aynan gaz quyish shoxobchalarini cheklovlardan sabab shaharda chiqindilar vaqtida olib ketilmayotganini aytgandi.

Ma'lum bo'lischicha, bugungi kunda barcha tuman, shahar hokimliklari ko'satmasiga binoan chiqindili tashish korxonalarini gaz quyish shoxobchalarini bilan shartnoma imzolagan.

Biroq muammo shundan, ikki tomonlarda shartnoma bormiyo'qmi baribir — cheklov kiritilgan vaqtida hech kim shoxobchadan gaz ololmaydi, gazning o'zi bo'lmaydi.

Viloyat "Toza hudud" DUK axborot xizmati bilan bog'landik. Ma'lum bo'lischicha, haqiqatan ham chiqindili tashish korxonalarini ATTISlar bilan shartnoma imzolagan. Shartnomaga ko'ra, bu korxonalariga tegishli transport



www.zarnews.uz <https://www.facebook.com/zarnews.uz> [@zarnews_uz](https://twitter.com/zarnews_uz) [@zarnews_uz](https://twitter.com/zarnews_uz)

9-fevral - Nizomiddin Mir Alisher Navoiy tug'ilgan kun



ISTARAM

Sarvi ozodimni bog' ichra xiromon istaram,
Sabzasin sarsabzu gul bargini xandon istaram.

Dard jononimda, balkim yuz alam jonimdadur,
Yo'qki jononim'a, bal jononim'a darmon istaram.

Tiyadur vayronim onsz, vah, yana bir qatla ham
Ul quyoshni baytul-ahzonimda mehmon istaram.

Naf' etar bo'lsa hino yanglig' kafi poying'a qon,
Chok etib ko'ksum, oni bag'rinda pinhon istaram.

Ey Xizr, hayon suyi tut dam-badamkim yor uchun,
Sadqa qilmoqliq uchun har lahzha bir jon istaram.

Mujdaye bergil mizoji sihhatidin, ey tabib,
Kim bu payg'oming uchun jonimni qurban istaram.

Uq kibi qaddin ko'rub aftoda chun ko'r o'l'mading,
Ey Navoiy, ko'zlarindga no'gi paykon istaram.

"ZARAFSHON"ning
YouTube
sahifasidagi videomateriallarni
kuzatib boring!



(4-sahifaga qarang) >>>

NAVOIY

**QADAMI YETGAN
DARI-ZANJIR
MAJMUASI
QAYTA TIKLANDI**



ti yo'qolib ketish xavfi ostida edi. Yodgorlik qayta tiklanib, hududda sayyoohlarga tashrif buyuradigan diqqatga sazovor joylarimiz yana bittaga ko'paydi. Muhibi, temuriylar

qadami yetgan, ota-bobolarimizdan meros tarixiy obyekt saqlab qolind.

Fazliiddin RO'ZIBOYEV.

"Zapravka"lardagi cheklov

U kimga qancha naf beradi?



vositalariga navbatsiz gaz quyib berish ko'zda tutilgan. Ammo yuqorida aytilanidek, cheklov amal qilayotgan vaqtida buning imkoniy yo'q.

Avalroq yo'lovchi tashish korxonalarida ham shunga o'xshash holat kuzatilayotgani haqida shikoyatlar tushgandi. Aniqlik kiritish uchun viloyat transport shoxbarmasi bilan bog'landik. Ta'kidlanishchida, bugungi kunda Samarcand shahringin ikkita hududida jamaot transporti uchun gaz quyish shoxbchasi ishlab turibdi. Ularda jamaot transporti istagan vaqtida gaz olishi mumkin ekan. Ammo mutasaddiga ko'ra, bu shoxbchalarda ham qishning sovuq kunlarda muntazam navbatlar yuzaga kelmoqda. Chunki birinchidan, viloyatda metan da harakatlanayotgan jamaot transporting o'zi 300 ga yaqin, shuningdek, chiqindili tashish faoliyati bilan

shug'ullanuvchi "Maroqand obod" DUK mashinalari ham shu shoxbchalardan foydalananadi.

Eslatib o'tish joiz, gaz quyish shoxbchalariga cheklovlar aynan vazirlik tomonidan kiritilgan. Biroq masalining mana shu qismi, maxsus texnikalarni yoqilg'i bilan muntazam ta'minlash borasida vazirlik bayonetlari bilor marta to'xtalimadi. Qisqasi, cheklov kiritilayotganda aftidan, masala puxta o'yanmagan. Oqibatda bugun sovuq kunlarda ko'chalarda to'plangan chiqindili yuzasidan aholi tegishli idoralarga, tegishli idoralar va jamaotchilik mahalliy hokimliklarga savol bilan yuzlan-

moqda. Metan "zapravka" larga esa aynan Energetika vazirligi tizimi orqali yoqilg'i beriladi yoki to'xtatiladi. Gaz quyish shoxbchalariga va chiqindili tashish korxonalarini o'rtasida istagancha shartnoma tuzilmasin, gaz bo'lmasa, cheklov vaqtida buning foydasi bo'lmaydi. Demak, cheklovlar ommatani e'lon qilib yubormasdan, mana bu tomonlari o'ylab ko'rish ham kerad.

Darvoqe, biz maqolada jamaot transporti va chiqindili tashish mashinalari haqida so'z yuritdik. Ammo masalining e'tibor qaratish shart bo'lgan yana qator og'riqli tomonlari bor. Jumladan, viloyatda 2500 dan ziyod "Damas" va boshqa turdag'i transportlar yo'lovchi tashish bilan shug'ullanadi. Samarcandning o'zida 20 mingga yaqin odam yo'nalishsiz tiksilarda yo'lovchi tashib, rasmjan o'zini o'zi band qilib, ro'yxatdan o'tgan. Qisqun kunlarda cheklovlar sabab shuncha fuqaroning ishi kasod bo'lgani bu hali muammoning to'liq manzarasi emas — ularning har biri kuniga kamida 50 kishiga xizmat ko'satsa ham, cheklovlar sabab qishning eng sovuq kunlarda bir million nafr atrofidagi yo'lovchida narx, transport yetishmochligi kabi omillarning ta'siri sezildi. Boshqacha aytganda, "aholiga oson bo'sin" deb kiritilgan cheklov aynan ahollining o'ziga noqulaylik keltirib chiqarmoqda.

So'nggi kunlarda havo harorati biroz ko'tarilib, metan gazi quyish bilan bog'liq muammolar pasaydi. Shuningdek, chiqindili tashish korxonalarini vaziyat o'nglanayotgani aytmoida. Biz esa yugorida aytganimizdek, kelgusi yilda bu muammo takrorlanmasligiga umid qilamiz.

Avvalo, keyingi yillarda metan "zapravka"larda cheklovlar bo'lmasdi deb umid qilamiz. Modomiki, kelasi yil ham ahvol shu bo'lар ekan, cheklovlar vaqtida buning foydasi bo'lmaydi. Shuningdek, chiqindili tashish korxonalarini vaziyat o'nglanayotgani aytmoida. Biz esa yugorida aytganimizdek, kelgusi yilda bu muammo takrorlanmasligiga umid qilamiz.

Anvar MUSTAFOQULOV,
"Zarafshon" muxbiri.



Parlament hayoti

YUQORI PALATA A'ZOLARI

mahallalarda muloqotlar o'tkazyapti

Oliy Majlis Senatining Fan, ta'lif va sog'iqliqi saqlash masalalari qo'mitasi raisi B.Abdullayev, senator R.Xolmurodov xalq deputatlari viloyat Kengashi raisi Sh.Negmatov, Kengash kotibi yati mudiri S.Usmonovlar bilan Jomboy tumanida bo'ldi.



Xizmat safari davomida Senat a'zolari tuman Kengashi deputatlari va doimiy komissiya raislari bilan uchrashib, davlat dasturlarining tumadagi ijrosi, aholi murojaatlari bilan ishlashda deputatlarning roli xususida fikr almashdi.

Jamiyat hayotida deputatning orni, deputat nazorati usullari, jumladan, xalq manfaati yo'lidagi qonun va qorolarning joylarda ijo etilishi ustidan nazorat o'rnatish muhimligi ta'kidlandi.

Muloqot davomida deputatlari faolligini yanada oshirish, saylovchilar tomonidan bildirilgan muammolarni yechimini hal qilishda Kengash vakolatlaridan samarali foydalanishga alohida e'tibor qaratildi.

Yig'ilishdan so'ng senatorlar va deputatlar Alisher Navoiy nomidagi mahallaga borib, «mahalla yettiligi» faoliyatni, mahallada yaratilgan sharoitlar va amalga oshirilayotgan ishlar bilan tanishdi.

Tadbirda qo'mita raisi B.Abdullayev davlat rahbari tomonidan bugungi kunda «mahalla yettiligi»ga bildirilayotgan ishonchni oqlash, belgilangan vazifalar ijrosini ta'minlash, bunda deputatlari bilan hamkorlik yana da kuchaytirish chora-tadbirlari to'g'risida qarori bo'yicha batafsil tushuntirish berdi.

Shundan so'ng senatorlar tumandagi «Bog'bon» agrokompleksida tashkil etilgan Invitro laboratoriysi faoliyati

bilan tanishdi.

Katta qishloq mahallasida joylashgan «Amin invest» korxonasidagi ish jarayonlari, ishchilar uchun yaratilgan mehnat sharotlari, yangi ish o'rinnari yaratish maqsadida amalga oshirilayotgan loyihiilar ham Senat a'zolarini bee'tibor goldirmadi.

Bahrom Abdullayev xizmat safari davomida Oqdaryo hamda Qo'shrabot tumanlarida ham bo'lib, hududlarda amalga oshirilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar bilan yaqindan tanishdi.

Jumladan, Qo'shrabot tumani Chimmos mahallasida barpo etilayotgan «IT VILLAGE» yoshlarini kelajak kasblariiga, dasturlash va chet tillariga o'qitish markazining qurilish ishlarini o'rganib, tegishli tavsiyalar berdi. Oqchopsoy mahallasida joylashgan 51-umumi o'rta ta'lif maktabida bo'lib, yangidan qurilgan o'quv binosida o'quvchilar uchun yaratilgan imkoniyatlar hamda shart-sharoitlar bilan tanishdi.

«Xonbandi» suv omborida yaratiladijan turistik markazlar loyihiilar hamda lalmi yerlarni sug'orish uchun yaratilayotgan imkoniyatlar bilan tanishish asosida bu borada parlament yuqori palasati tomonidan ko'rsatiladigan yordam xususida fikrashib olindi.

Qayd etish lozimki, senator B.Abdullayev joylarda mutasaddilar bilan muloqot davomida aholi bandligini ta'minlash bo'yicha tasdiqlanadigan dasturlarni amalga oshirish, bo'sha kvotalanadigan ish o'rinnariga ishga joylashtirish, o'zini o'zi band qilishning samarali shakllarini rivojlanishir borasida tushunchalar berdi.

“Qaynoq” davlar kelyapti uni bartaraf etish o'z qo'limizda

Global isish oqibatida joylarda iqlim o'zgarib, insoniyat hayoti, salomatligiga xavf tobora ortib borayotganligidan xabarligiz bor. Tabiiy ofatlar, jumladan, ko'chkilar, kuchi yug'ingarchilik yoki aksincha, cho'llanish... Bularning noodatiy joylarda bo'lishi yoki anomal darajada ko'payishiha insoniyatning ham “xizmati” bor. Xo'sh, buni to'g'rilash mumkinmi?

Muqqaddam Birlashgan millatlar tashkiloti qoshida faoliyat olib boruvchi olimlar guruhi 140 yillik meteorolog kuzatuvlari natijasini e'lon qilgan edi. Ularning xulosasiga ko'ra, ilgari atmosfera harorati o'rtacha 14,50S bo'lgan holda, hozir 1,230S ga oshgan ekan. Vaziyatni tushunishingiz uchun holatni o'z tana haroratingiz misolida tasavvur qiling. Agar u 36S bo'lsa, siz sog'iomsiz. Harorat 37S dan ko'tarildimi, isitma qilayotgan bo'lasiz, demak betobisz. Yuqorida qaramalarni sayyoramiznikiga qiyoslasak, hozir u 38S harorat bilan isitma qilyapti.

Afsuski, buning asosiy sababi inson faoliyati bilan bog'liq. Ya'ni, atmosferaga chiqarilayotgan zararli gazlar issiqxonalar effektini hosil qilib, ekologik muvozanatni

buzmoqda. Ma'lumotga ko'ra, bugun bu moddalarning 50-60 foizi neft mahsulotlari, gaz va ko'mirni yoqishdan, 20-30 foizi sa-not korxonalaridan, 10 foizi chiqindilardan chiqmoqda. Qiziq tomoni, ularning har biri inson hayotini yaxshilash uchun xizmat qiliши kerak, ammo shu maqsadga erishish yo'lidagi harakat butun insoniyat kelajagi-ga tahdid solmoqda.

Nima qilish kerak? Avvalo, yashil energiyaga o'tish lozim. Bugun butun dunyoda, xususan, yurtimizda ham shu masalaga jiddiy yondoshilgan. Agar tabiiy, qayta tiklanuvchi energiyadan unumli foydalanishni boshlasak, tabiatga chiqariladigan zahar miqdori kamayadi. Shuningdek, chiqindilarni qayta ishlash orqali ham tabi-

Davlatimiz rahbari 2023-yil 24-avgustda viloyatimizga tashrifi chog'ida Oqdaryo tumanidagi 32-umumi o'rta ta'lif maktabida tashkil etilgan kasb-hunar to'garaklarini ko'zdan kechirib, viloyatdagi har bir tumanda 10 tadan maktabda bu tizimni joriy qilish, qolgan viloyat hokimlariga yil yakunigacha har bir tumanda kamida ikkitadan maktabda ushbu tajribani yo'liga qo'yish topshirig'ini bergandi.

Prezidentning 2024-yil 2-fevralda "Umumiy o'rta ta'lif muassasalar o'quvchilarini xorijiy til va zamonaviy kasblarga o'qitish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarorida ham yuqori sinf o'quvchilarini kasb-hunarga o'qitish uchun maktablarda ustaxonalor tashkil etish belgilangan. Xo'sh, umumiy o'rta ta'lif maktablarda kasb-hunar o'rgatish ustaxonalor ochildimi, o'quvchilar kasb-hunarga o'qitilayaptimi? Bulung'ur tumani misolida ushbu savollarga javob izladik.

Tumanda 70 ta umumiy o'rta ta'lif maktabi bo'lib, Prezident topshirig'i va mazkur qaror jirosi bo'yicha maqtanarli hech qanday ish qilinmagani. Faqat 2024-2025-o'quv yilining boshida olita maktab kasb-hunar o'rgatishga tanlab olingan. Ammo tuman hokimligi tomonidan kasb-hunar ustaxonalari uchun mablag' ajratilmagan. Maktab direktorlari tadbirdor topib, kasb-hunar to'garaklar ochgan. Ushbu maktablarning har birida bo'lib, bugungi holat bilan tanishdik.

Tumandagi 5-umumi o'rta ta'lif maktabida erkaklar va ayollar sartaroshxonasi uchun xonalar ajratilib, viloyat mahalliy budgeti hisobidan sartaroshxonasi jihozlari olib kelingan. Sentabrdan buyon olib kelingan mazkur jihozlar hali o'rnatalmagan va ishga tushirilmagan. Direktor o'ribbosari Akmal Mamasoliyevning ayitsizcha, 52 nafr 11-sinf o'quvchilar maktab yonida joylashgan tikuvchilik va sartaroshlik bilan shug'ul-lanayotgan tadbirdorlarga biriktirilgan. O'quvchilar mazkur tadbirdorlardan kasb o'rganyapti.

Tumandagi 36-umumi o'rta ta'lif maktabida 10-sinflarga dasturchilik va tikuvchilik kasblari o'rgatilayapti. Maktab o'tgan yil open budgetdan 1 miliard so'm yutib olib, ushbu mablag' evaziga 32 ta kompyuter, dazmol stol, tikuvchilik asbob-uskulnari va boshqa jihozlar sobib olgan. 10 ta tikuv mashinasi ham maktabniki bo'lib, o'quvchi-qizlarga kasb o'rgatish uchun tikuvchi Muqaddas Usanova ishga olingan. Maktab direktori va jamoaning tashabbusi bilan shuncha ish bajarilgan bo'lsa-da, tikuvchilikni o'rgatish uchun tuman hokimligi tomonidan xomashyo yetkizilayotgan.

Tumandagi 70-maktab jamoasi 2023-yilning dekabrida open budgetdan maktabni jihozlash uchun 1 miliard 300 million so'm yutib olib, 15 ta kompyuter, 20 ta noutbuk va boshqa buyumlar sobib ol-

2025-yil 8-fevral
SHANBA

Surishtiruv

2-MAKTAB


Maktablarda KASB-HUNAR TO'GARAKLARI ochilganmi?

gan. Bu muassasada ham sharotdan kelib chiqib dasturchilik va tikuvchilik to'garaklar ochilgan. Tikuvchilikni o'rgatishga taklif etilgan yakka tartibagi tadbirdor Fotima Saidamatova o'zining 5 ta tikuv mashinasi ni maktabga olib kelgan. Maktabning yana 3 ta tikuv mashinasi bo'lib, ular yordamida 10-sinf qizlariga tikuvchilik kasbi o'rgatilayapti. Bu yerda maktabga ham tikuvchilik uchun hech qanday xomashyo berilmagan. Shuningdek, 2-, 42-, 48-umumi o'rta ta'lif maktablarda ham dasturlash va tikuvchilik kasblari bo'yicha to'garaklar ochilgan. 2-maktab open budgetdan ikki



marta g'olib bo'lib, zamonaviy yozgi stadium, trenajyor buyumlari, 16 ta kompyuter, 6 ta tikuv mashinasi va boshqa jihozlarni sobib olgan. 42-maktab open budgetda g'olib chiqib, 21 ta kompyuter va 10 ta tikuv mashinasi sobib olgan. Ammo Bulung'ur tumanining sharoitidan kelib chiqib, maktablarda boshqa biror kasb-hunar to'garagi ochilayotgan. To'g'riroq'i, rahbarlarning ushbu topshiriqqa mas'uliyatsizligi sabab shu paytgacha bajarilishi kerak bo'lgan ishlar vakolat doirasiga kirmsa-da, maktab direktorlari zimmasiga yuqilatigan.

Dasturlash kasbi bo'yicha ayrim maktablar IT sohasi bo'yicha mutaxassislarini 0,5 shtat asosida ishga olib bo'lsa, boshqa-



lari informatika fani o'qituvchisining darslari kamliq sabab bu ishni boshqa o'qituvchiga yuklagan. Tikuvchilik kasbini o'rgatish bo'yicha maktablar asosan yakka tartibda faoliyat olib boradigan tikuvchilarni jaib qilgan. Biroq besh oydan beri ularga tikish uchun xomashyo berilmagan.

Aslida yuqorida keltirilgan qarorga asosan, kasb-hunarga o'qitishda talab etiladigan zarur xomashyo materiallarni xarid qilish mahalliy budget mablag'larini hisobidan moliyalashtirilishi belgilangan.

Bundan tashqari, umumiy o'rta ta'lif maktablarida qarorga asosan o'quvchilarni ishchi kasblarga va axborot texnologiyalariga oid zamonaviy kasblarga o'qitish bo'yicha materiallarini xarid qilish mahalliy budget mablag'larini hisobidan moliyalashtirilishi belgilangan. Biz ko'rgan maktablarda esa kasb-hunar ustaxonalari ochishga joy bor, amma kasb o'rgatish uchun biroq tadbirdorni jaib qilishga sharoit qilinmaygan.

Mas'ullar ushbu masalaqa sovuqqonlik bilan qaramasdan, kelajagimiz umidlar bo'igan yoshlarning kasb-hunar o'rganishiga zarur shart-sharoit yaratadi, degan umiddamiz.

Xurshida ERNAZAROVA.

BU FAKT!

Statistika boshqarmasiga ko'ra, 2024-yilning YANVAR-DEKABR oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan **1 456,0** ming tonna sut ishlab chiqarilgan. Xo'jalik toifalari bo'yicha tahsil qilinganda, sut yetishtirish umumiy hajming **90,6** foizi dehqon va tomorqa xo'jaliklari hissasiga to'g'ri kelgan.

Fuqarolik jamiyatni institutlariga

1 milliard so'mdan ko'proq grant ajratildi

Samaqanddagi fuqarolik jamiyatni institutlarini qo'llab-quvvatlash jamoat fondi xalq deputatlari viloyat Kengashi huzuridagi ijtimoiy sheriklik bo'yicha jamoat komissiyasi tomonidan tasdiqlangan "Dastur"ga muvofiq ish olib boradi. Viloyatda uchinchi sektorni qo'llab-quvvatlash uchun ajratilayotgan mablag'lar xalq vakillari tomonidan belgilab beriladi.

Xususan, 2024-yildagi faoliyat uchun xalq deputatlari viloyat Kengashi qarori bilan 4 milliard 804 million 344 ming so'm ajratildi.

Bu mablag' quyidagicha taqsimlandi:

- Davlat grantiga – 1 155 709 so'm;
- Davlat subsidiyasiga – 3 416 213 204 so'm;
- Jamoat fondi xodimlarining oylig ish haqsi va boshqa xarajatlari uchun 225 million 402 ming so'm.

Bundan tashqari, Oliy Majlis huzuridagi jamoat fondi tomonidan davlat ijtimoiy buyurtmasiga 5 milliard 520 million 750 ming so'm ajratildi.

Nogironlar jamiyatni viloyat, shahar va tuman bo'limlariga 1 milliard 570 million 685 ming 357 so'm, Ko'zi ojizlar jamiyatni viloyat, shahar va tuman bo'limlariga 1

milliard 555 million 217 ming 194 so'm subsidiya berilgan.

Nogironlar assotsiatsiyasi viloyat bo'limi 114 million 480 ming 778 so'm, Karlar jamiyatni viloyat bo'limi 175 million 829 ming 875 so'm subsidiya olib.

Shuningdek, subsidiya mablag'laridan Savdo-sanoat pala-tasi viloyat hududi boshqarmasiga 5 milliard 25 million 750 ming so'm, 11 ta milliy madaniy markazga 495 million so'm mablag' ajratildi.

Pullarni bu tarzda taqsimlash uchun xalq deputatlari viloyat Kengashi huzuridagi jamoat fondi va ijtimoiy sheriklik bo'yicha jamoat komissiyasi (davlat va nodavlat tashkilotlari va deputatlardan iborat 23 na-far) tomonidan 11 marta yig'ilish o'tkazildi.

Doston MALIKOV,
jamoat fondi rahbari.

Olim bo'lsang, olam seniki

Mirzo Ulug'bek 1420-yilda asos solgan madrasasi olyanining bevosita vorisi hisoblangan Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti olimlari ham bugungi kunda buyuk ajdodlarning an'analariga sodiq holda ta'lum va ilm-fan sohasida ulkan yutuqlarga erishmoqdalar. Ana shunday zabardast fizik olim va ixtirochi, fizika-matematika fanlari doktori, professor Ne'mat Nizomov optika va spektroskopiya yo'nalihsida fundamental tadqiqotlari bilan nafaqat mamlakatimizda, dunyo e'tirofidagi fan darg'alarini qatoridan o'rinn oldi.

Ne'mat Nizomov 1940-yil 10-fevralda Samarqand tumanga qarashli Moturid qishlog'da tug'ilgan. Samarqand shahridagi 10-maktabda o'qib yurgan vaqtaridayoq SamDU fizika-matematika fakulteti qoshidagi "Yosh matematiklar maktabi"ga qatnagan. Maktabni a'lo baholarga bitirib, 1959-yilda universitetning fizika fakultetiga o'qishga kiradi. Ilmga chanqoqligi va trishqoqligi tufayli universitet rahbariyati uni M.Lomonosov nomidagi Moskva davlat universitetiga 4-bosqichdan o'qishini davom ettirishiga imkoniyat yaratadi. Yosh iqtidorli talaba shu universitetning professori L.Levshin rahbarligida olib borilayotgan molekulyar lyuminessensiya sohasidagi fundamental tadqiqotlarga jaib etildi. Keyinchalik aspiranturada tahlis oladi va 1969-yilda nomzodlik dissertasiyasi muvaffaqiyatlida himoya qiladi.

Iste'dodli yosh olim Samarganda qaytgach, optika kafedrasiga ishga qabul qilindi

va o'sha paytda kafedra mudiri A.Otaxo'jayevning e'tiboriga tushadi. A.Otaxo'jayevning qo'llab-quvatlashi tufayli N.Nizomov molekulyar lyuminessensiya ilmiy laboratoriyanisini tashkil etadi. Iste'dodli olim laboratoriya olinigan ilmiy natijalarini asosidagi fan doktorligi dissertasiyasini 1985-yilda Kiyev davlat universitetida himoya qiladi.

Ne'mat Nizomovning ilmiy rahbarligida 50 dan ortiq O'zbekiston va Rossiya Federatsiyasining ixtiro uchun patentlar, 30 dan ortiq elektron o'quv qo'llanmalari uchun guvohnomalar olindi. Olimming Web of Science, Scopus va Science Direct va boshqa xalqaro ilmiy-teknik ma'lumotlar bazalarida qayd qilingan hamda respublika markaziy ilmiy jurnallarida 500 dan ortiq ilmiy-usluviy ishlari e'lon qilingan. Olim rahbarligida o'ndan ortiq xalqaro va respublika miqyosida grantlar bajarilgan, ilmiy konferensiyalar tashkil etilgan.

Professor N.Nizomovning "Yangi kumushsiz materiallar", "Gazlar tarkibida kislo-



ta shuhrat qozonishiga hissa qo'shgan N.Nizomov o'zining molekulyar lyuminessensiya ilmiy mabtabini yaratadi va bugungi kunda olim rahbarligida 2 nafran fan doktori va 21 nafran nomzodlari tayyorlandi. Shogirdlari O'zbekistondan tashqari AQSh, Koreya, Rossiya kabi mamlakatlarda ham muvaffaqiyati faoliyat yuritmoqda. Iqtidorli shogirdi E.Kurtaliyev jahondagi 50 nafr iste'dodli yosh fiziklar qatorida, Isaak Nyuton vorisi sifatida e'tirof etilgan.

Benazir inson Ne'mat Nizomov rafiqasi Mohira aya Asadova bo'lib tafazzol qilishi, ma'rifati qilib tarbiyalashdi. Ular ham ota izidan borib o'qituvchilik kasbini tanlashgan, nabiralari esa respublika va xalqaro olimpiadalarining g'olib sifatida xorijiy ta'lum muvassasalarida tahsil olmoqda.

Hozirda 85 yoshni qarshilayotgan ustoz N.Nizomov hamon yoshlariga sabq berib, el-yurt taraqqiyoti yo'lida yoshlarga o'rnak bo'lib, mehnat qilib kelmoqda. Ustoz bugun ibratli oila sohibi, jamoaning e'zozida, xalqimizing e'tibor va e'tirof etilgan.

Ustoz, shukrona kuningiz muborak bo'lsin! Doimo el ardog'iда bo'ling, yosh avlodni tarbiyalashdi ga faoliyatizingiga ulkan muvaffaqiyatlar tilayim!

Mo'min QODIROV,
fizika-matematika fanlari doktori, professor Solih OSTONOV,
Buxoro muhandislik- texnologiya instituti professori Sherzod RAHIMOV, dotsent.

Yonimizdag'i odamlar



O'zimizning Ahror aka

Har bir mehnat jamoasida o'z kasbining, ishining ustalari, fidoyilar bo'ladiki, ularning har bir xatti-harakati, mehnatsevarligini yoshlarga ibrat qilib ko'rsatgung keladi. Ana shunday xodimlardan biri Ahror Jalolovdir.



35 yildan buyon viloyat hokimligining uchta nashri - "Zarafshon", "Samarqandskiy vestnik" hamda "Ovozi Samarqand" gazetalarini tahririyojlashgan binoda xo'jalik ishlari mudiri vazifasida mehnat qilib, "o'zimizning Ahror aka"ga aylangan boisi ham u kishining kamtarligi, mehnatsevarligi samarasini bo'lsa, abjamas.

1965-yilda Samarqand shahrinining Novbog'chiyon mahallasida dunyoga kelgan A.Jalolov yoshligidan mehnat qilib ulg'aydi. Shu bois viloyat Matbuot uyi xo'jalik ishlari mudiri vazifasida ishlashda, bir qarasang, bog'bonlik, bir qarasang, elektr ustasi, duradgorlik, tashkilotlarga gazeta tarqatuvchilik ishlarini ham bajarib ketaveradi.

- Elga xizmat qilishning katta-kichig'i bo'lmaysa, - deydi Ahror aka.

- Kuningdir koriga yaroqotganim, odamlarga ziyo ulashayotgan, ma'rifat tarqatayotgan kishilar yonida mehnat qilayotganining o'zi men uchun katta baxt.

A.Jalolov jamoada jonkuyar xodim bo'lish bilan bir qatorda ibratli oila-ning ham boshlig'i idir. Turmush o'rtog'i

Mayram yanga bilan uch farzandni tarbiyalab voyaga yetkazdi. Ular otasi kabi el xizmatida.

Bu ibratli oila yetakchisining xo'jalik ishlarini yuritishdagi boy tajribasi bugun tahririylarda ishlayotgan biz, jurnalistlar uchun ham ibrat namunasidir.

Bugun o'zining 60 yoshini qarshilayotgan fidoyi inson, gazetachilik tashvishlariga kamarbasta bo'lib kelayotgan Ahror Jalolovga uzoq umr, sog'lik-salomatlik tilayim!

"Zarafshon" va "Samarqandskiy vestnik" gazetalari tahririyojlatmoqda.

REKLAMA, E'LONLAR, BILDIRISHLAR / Gazetamiz haftada uch marta - seshanba, payshanba va shanba kunlari chop etiladi / Gazetada chop etilayotgan reklama va e'lolar tezkor, samarali va hamyonbop / MUROJAAT UCHUN TELEFON: 66-233-91-56

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti quyidagi kafedralar bo'yicha bo'sh lavozimlarga

TANLOV E'LON QILADI

Kafedra mudiri lavozimiga:

- Odam va hayvonlar fiziologiyasi va biokimyo kafedrasi (fan nomzodi, PhD, dotsent).
- Umumiy fizika kafedrasi (fan nomzodi, PhD, dotsent).
- Nazariy va amaliy mehanika kafedrasi (fan doktori, professor).
- Geografiya va tabiiy resurslar kafedrasi (fan nomzodi, PhD, dotsent).
- Ijtimoiy-iqtisodiy geografiya kafedrasi (fan nomzodi, PhD, dotsent).
- Jahon tarixi kafedrasi (fan nomzodi, PhD, dotsent).
- Xorijiy tillar kafedrasi (fan nomzodi, PhD, dotsent).

Kafedra professori lavozimiga:

- Yadro fizikasi va astronomiya kafedrasi - 1 stavka.
- Inson resurslarini boshqarish kafedrasi - 1 stavka.
- Matematik fizika va funksional analiz kafedrasi - 1 stavka.
- Geografiya va tabiiy resurslar kafedrasi - 1 stavka.
- Sotsiologiya va ijtimoiy ish kafedrasi - 1 stavka.
- Rus va chet el adabiyoti kafedrasi - 1 stavka.

Kafedra dotsenti lavozimiga:

- Bioteknologiya kafedrasi - 2 stavka.
- Odam va hayvonlar fiziologiyasi va biokimyo kafedrasi - 1 stavka.
- Polymerlar kimyosi va kimyoviy texnologiya kafedrasi - 1 stavka.
- Umumiy fizika kafedrasi - 1 stavka.
- Optika va spektroskopiya kafedrasi - 1 stavka.
- Nazariy fizika va kvant elektronikasi kafedrasi - 1 stavka.

- Raqamli iqtisodiyot kafedrasi - 3 stavka.
- Tarmoqlar iqtisodiyoti kafedrasi - 1 stavka.
- Agrokimyo va o'simliklarni himoya qilish kafedrasi - 1 stavka.

- Meva-sabzavotchilik va uzumchilik kafedrasi - 2 stavka.
- Algebra va geometriya kafedrasi - 0,25 stavka.
- Ehtimollar nazariyasi va amaliy matematika kafedrasi - 1 stavka.

- Matematik modellashtirish kafedrasi - 1 stavka.
- Boshqaruv nazariyasi va axborot xavfsizligi kafedrasi - 1 stavka.
- Sun'iy intellekt va axborot tizimlari kafedrasi - 1 stavka.

Bekor qilinadi

- "PASTDARG'OM QURILISH MOLLARI" MCHJ nomidan ishonchnoma asosida Alikulov Ismoil Valiyevich va Tangurov Baratlar o'tsasida Samarqand shahri "Kamoliddin Behzod" MFY, Firdavsiy ko'chasi 84-uy, 268-soni kvartira uchun tuzilgan, Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Aliyeva Lola Zoirovna notarial idorasidan 2023-yil 10-avgustda tasdiqlanib, Ksh

133812 SA blankada tuzilgan, 202301714003581 raqam bilan reestrga kiritilgan oldi-sotdi shartnomasining sotib oluvchidagi nusxasi va ushu burtarivchaning kadastr hujjatlari yo'qolganligi sababli bekor qilinadi.

Urgut tumanidagi 44-soni maktabgacha ta'lum tashki-

lotining dumaloq muhri va burchak tamg'asi yo'qolganligi sababli bekor qilinadi.

Yurgt tumanidagi 44-soni maktabgacha ta'lum tashki-

lotining dumaloq muhri va burchak tamg'asi yo'qolganligi sababli bekor qilinadi.

Yurgt tumanidagi 44-soni maktabgacha ta'lum tashki-

lotining dumaloq muhri va burchak tamg'asi yo'qolganligi sababli bekor qilinadi.

Yurgt tumanidagi 44-soni maktabgacha ta'lum tashki-

lotining dumaloq muhri va burchak tamg'asi yo'qolganligi sababli bekor qilinadi.

Yurgt tumanidagi 44-soni maktabgacha ta'lum tashki-

lotining dumaloq muhri va burchak tamg'asi yo'qolganligi sababli bekor qilinadi.

Yurgt tumanidagi 44-soni maktabgacha ta'lum tashki-

lotining dumaloq muhri va burchak tamg'asi yo'qolganligi sababli bekor qilinadi.

Yurgt tumanidagi 44-soni maktabgacha ta'lum tashki-

lotining dumaloq muhri va burchak tamg'asi yo'qolganligi sababli bekor qilinadi.

Yurgt tumanidagi 44-soni maktabgacha ta'lum tashki-

lotining dumaloq muhri va burchak tamg'asi yo'qolganligi sababli bekor qilinadi.

Yurgt tumanidagi 44-soni maktabgacha ta'lum tashki-

lotining dumaloq muhri va burchak tamg'asi yo'qolganligi sababli bekor qilinadi.

Yurgt tumanidagi 44-soni maktabgacha ta'lum tashki-

lotining dumaloq muhri va burchak tamg'asi yo'qolganligi sababli bekor qilinadi.

Yurgt tumanidagi 44-soni maktabgacha ta'lum tashki-

lotining dumaloq muhri va burchak tamg'asi yo'qolganligi sababli bekor qilinadi.

Yurgt tumanidagi 44-soni maktabgacha ta'lum tashki-

lotining dumaloq muhri va burchak tamg'asi yo'qolganligi sababli bekor qilinadi.

Yurgt tumanidagi 44-soni maktabgacha ta'lum tashki-

lotining dumaloq muhri va burchak tamg'asi yo'qolganligi sababli bekor qilinadi.

Yurgt tumanidagi 44-soni maktabgacha ta'lum tashki-

lotining dumaloq muhri va burchak tamg'asi yo'qolganligi sababli bekor qilinadi.

Yurgt tumanidagi 44-soni maktabgacha ta'lum tashki-

lotining dumaloq muhri va burchak tamg'asi yo'qolganligi sababli bekor qilinadi.

Yurgt tumanidagi 44-soni maktabgacha ta'lum tashki-

lotining dumaloq muhri va burchak tamg'asi yo'qolganligi sababli bekor qilinadi.

Yurgt tumanidagi 44-soni maktabgacha ta'lum tashki-

lotining dumaloq muhri va burchak tamg'asi yo'qolganligi sababli bekor qilinadi.

Yurgt tumanidagi 44-soni maktabgacha ta'lum tashki-

lotining dumaloq muhri va burchak tamg'asi yo'qolganligi sababli bekor qilinadi.

Yurgt tumanidagi 44-soni maktabgacha ta'lum tashki-

lotining dumaloq muhri va burchak tamg'asi yo'qolganligi sababli bekor qilinadi.

Yurgt tumanidagi 44-soni maktabgacha ta'lum tashki-

lotining dumaloq muhri va burchak tamg'asi yo'qolganligi sababli bekor qilinadi.

Yurgt tumanidagi 44-soni maktabgacha ta'lum tashki-

lotining dumaloq muhri va burchak tamg'asi yo'qolganligi sababli bekor qilinadi.

Yurgt tumanidagi 44-soni maktabgacha ta'lum tashki-

lotining dumaloq muhri va burchak tamg'asi yo'qolganligi sababli bekor qilinadi.

Yurgt tumanidagi 44-soni maktabgacha ta'lum tashki-

lotining dumaloq muhri va burchak tam

Alisher Navoiy tavalludining 584 yilligiga



“Bilgil o‘z haddingni-yu, behad rioyat qil adab”

Ulug’ shoir va mutafakkir Alisher Navoiy tavalludining 584 yilligi munosabati bilan navoiyshunos olima, filologiya fanlari doktori, professor, O‘zbekiston Respublikasida xizmat ko‘rsatgan yoshlar murabbiysi Dilorom Salohiy bilan muloqotda bo‘ldik.

- Dilorom opa, navoiyshunoslikning bugungi ahvoli sizni qoniqtiradimi?

- Navoiyshunoslik fanining eng rivojlangan davri XX asr edi. Bu davrda Nizomiddin Mir Alisher Navoiy hazratlarining asarlari matnlari o‘rganilib, nashr etildi, manbahunoslilik tadqiqotlari yaratildi va bu asosda navoiyshunoslikning nazariy masalalari yuzaga chiqib, taniqli olimlarining ilmiy tadqiqotlari dunyo yuzini ko‘rdi. Bu davr olimlari navoiyshunoslik sohasida misli ko‘rilmagan muvaffaqiyatlarni qo‘lga kiritdilar, ulug’ shoir asarlarda ifoda etilgan ko‘plab masalalariga ilmiy munosabat bildirildi. Ammo davrning hukmoni siyosiy mafkurasi tadqiqot maydonini kengroq olishga, ulug’ shoir ijodi mohiyatini to‘la yoritishga imkon bermas edi. Ta‘bir joiz bo‘sa, bu betakror ijodiyot surat, majoz nuqtai nazardan batfasilroq, ammo sifrat, haqidat jihatidan imo-ishoralar bilan pardalab o‘rganidi.

Navoiy asarlaring asl mohiyati va ahamiyatini chuqur, barcha tafsilotlari bilan yoritib berish imkoniyati keyingi chorak asradan ko‘proq vaqt davomida yuzaga keldi. Aynan ana shu davr ilmining samarasi o‘tgan yuz yil davomida qilingan mehnat samarasidan kuchliroq bo‘ldi. Buning sababi hammaga ayon – har satrida Hazratning pok e’tiqodi aks etib turgan ijodiyoti mafkuvayi tushovlarsiz, xolis o‘rganildi. Ikki davr navoiyshunosligi rivoji navoiysevarlar qalbida chuqur iftixor tuyg‘ularini uyg‘otadi.

Savolningizga savol bilan javob bersam: Quyoshi nuridan, taftidan kim to‘yibdi?! Suv tarovatidan-chi?! Gul iforidan-chi?! Navoiyning umumbashariy ijodiyoti mazmuni, ilmiy-badiyi tafakkuri mag‘zini chaqib o‘rganish yo‘li juda keng, juda uzun. Navoiyshunoslik fani oldida hali tadqiq etilishi lozim bo‘lgan qator masalalar turibdi. Ulug’ shoirning qo‘lyozma va toshbosma asarlari manbalari imkon darajasida to‘la yig‘ilmoq lozim. Xususan, Samarqanda yaratilgan “Sab‘atu abhur” nomli lug‘ating yangi manbalari topilib, nashr ettirilmog‘i kerak. Shoirning masnaviyari, soqynomalarini, forsiv tildagi qasidalarini bir-ikki ilmiy ish doirasida qolib ketmay, kengroq tadqiq etilsa, nur ustiga nur bo‘ladi. Hazratning ijtimoiy faoliyati yangi nuqtai nazardan, zamondoshlari bilan munosabatlari, ijodiy maktabi, asarlarning tarjimalari o‘rganilsa, navoiyshunoslik fani yana yangi mazmum-hiyat, ahamiyat kasb etishi mumkin.

- “Navoiyga yetmoq uchun yana besh yuz yil yurmoq kerak”, degan ekan shoirlarimizdan biri. Shu fikrga qanday qaraysiz?

- Ammo masofani yanada uzoqroq qo‘yish kerak, deb o‘ylayman. Navoiyni anglamoq uchun u e‘tibor qaratgan barcha mavzu va masalalarni o‘rganmoq lozim. Masalan, Hazratning “Tarixi muluki Ajam” va “Tarixi anbiyo va hukamo” nomli tarixiy asarlari bor. U tafsilotni Odam alayhissalom yaratilishi tarixidan boshlaydi. O‘quvchida: “Navoiy bu tarixni qaysi asarlarni ko‘rib yozdi ekan?”, degan savol tug‘iladi. Savolning javobini topish uchun esa 500 yillik masofani o‘tish kamlik qiladi.

- Sizningcha, ulug’ shoir ijodini ommalashtirish uchun nimalarga e‘tibor bermoq lozim?

- Navoiy ijodiyotiga hayotimizda har bir masala yechimida ehtiyojimiz borligini anglamog‘imiz kerak. Talabni ehtiyoj tug‘diradi. Masalan, hozirgi yosh avlod o‘zini ancha erkin his qiladi, dunyo kezish, xoriga chiqish istagi kuchli. Ammo Hazratning kitoblarini qo‘llariga olsa, ularni ogholantiradi:

*Qushqa yung maskan aro xushrogdurur ozodliq,
Bo‘lg‘onidin band aro sayyod ipak domi bila.*

Ya‘ni, ovchining ipak to‘rlaridan bo‘lgan qafasida o‘tirgandan ko‘ra, o‘zining tikanlardan bo‘lgan uyasida o‘tirgan qush ozoddir. Yoki:

*Zahrni o‘z komi birla ichsa andin yaxshikim,
Ichsa hayvon sharbatin nokomliq jomi bila.*

Ixtiyorsiz, bironing qo‘li bilan “hayvon sharbat”, ya‘ni abadiy tiriklik suvini ichgandan ko‘ra, o‘z qo‘li bilan og‘u ichgani afzal-roqdir.

Sir emas, hozirgi kunda qizlarimiz tarbiyasiga jiddiy e‘tibor berishimizga to‘g‘ri kelmoqda. Ba‘zan ular hayo chegarasini anglamay, otasiga, akalariga hissiyorlari haqida ochiq gapirganganlari quloqqa chalindan. Shunday sharoitda Hazrat Navoiyning “Farhod va Shirin” dostonida malika Shirin tilidan aytgan so‘zlari shu dardning davosi bo‘ladi:

Manga ne yoru ne oshiq havasdur,

Agar men odam o‘sam, ushbu basdur.

Ommalashtirish – hayotimiz uchun zarur paytda Hazrat pand-o‘g‘itlarini, hikmatlarini tilimizdan tushirmsilik, yoshiharimizni ham shunga odat qildirmog‘imiz lozim.



- Akademik Vohid Abdullayevdan so‘ng Hazrat Navoiyning Samarqandda yashagan davrini yana biror olim o‘rgandi? Bu haqda yangi ma‘lumotlar bormi?

- Ustoz Vohid Abdullayevdan so‘ng Navoiyning Samarqandga safari haqida akademik Botirxon Valixo‘jayev o‘tgan asarning 90-yillari boshlarida “Muloqot” jurnalida bir maqola e‘lon qilgan edi. Bu maqolada ustoz Samarqandga safar qilgan ikki tolibi ilm – Abdurahmon Jomiy va Alisher Navoiy haqida so‘zlab, ularning Hirotdan Samarqandga, Samarganddan Hirotg‘a qadar bo‘lgan karvon yo‘llarida uchrashgan bo‘lishlari mumkinligi haqidagi mulohazalarini bayon etgan. Shuningdek, ustoz Botirxon domla Alisher Navoiyning samarqandlik yirik faqiji, tilshunos olim, tibbiyot bilimdoni Xoja Fazlulloh Abullays as-Samargandiy bilan muloqoti, tahsili, faqiji

xonadoni, ajoddolari tarixi va avlodining Navoiy hazratlariga nisbatan bo‘lgan ehtiromi haqida batatsil ma‘lumot beruvchi maqolalarini yozgan. Ustozi V.Abdullayev bergan ma‘lumotlarni to‘idirar ekan, Botirxon domla Navoiyning samarqandlik buyuk ma‘naviy murshid Xoja Ahrori Vali bilan uchrashushi, ota-boladek qaynoq munosabati, uzoq davom etgan muloqotlari haqida ham qiziqari ma‘lumotlarni bilmayman. Ammo badiiy adapbiyotda bir yangi asar yaratildi. Bu Iqbol Mirzoning “Samarqand sayqali” nomli dramasidir. Albatta, bu ilmiy emas, badiiy asar, unda badiiyat talablariga rioya qilingan.

- Ulug’ shoir ijodi haqida faqat 9-fevral sanasi atrofida gapirilishi g‘alatiqroq emasmi?

- “G‘alat” – xato degani. To‘g‘ri aytdingiz, bunday qilish xato, huzurimizda turgan hikmat xazinasidan bebabra bo‘lib yashash – xato, maqollarga, hikmati so‘zlarga aylanib ketgan pand-o‘gitlarni unutmoq – katta xato. Hozir texnika davri, yangi-yangi tajribalar, texnologiyalar davri. Yoshlarimizning qiziqishlari ko‘proq kompyuter, internet kabi zamonaviy axborot vositalari bilan band. She‘riyat esa romantizm davri mahsuli. Navoiy shu zamonda, bizning davrimizda yashagani, shubha yo‘q, asarlarini romantik dostonlar sifatida emas, nasrda, zamoniylar ilmiy uslubda yozgan bo‘lar edi. Ammo bu degani aslo Navoiy o‘z davrida qolib ketdi, degani emas. Barcha davrlar uchun dolzab bo‘lgan inson muammolarini ko‘tarib chiqdimi – bu ijodiyot umrboqiy, muammolar yechimi ko‘rsatib berdimi – bu ijodiyot umumbashariy! Masala shundaki, biz katta avlod yoshlarga aqli, ongi, shuuri, qiziqishlari texnika bilan band bo‘lsa-da, jismidagi eng mo‘jaz qarorgoh – qalbi hech qachon temir kabi qotib, g‘ariblashib qolmasligi lozimligini har daqqa uqdirmog‘imiz lozim. Ulug’ Hazrat asarlarni o‘qib bermod, uqdirmoq bilan qalb qo‘rlarimiz – farzandlarimizning insoniy qiyofasi, pok fitratiga nuqson yetmasligiga intilmog‘imiz kerak.

- Qarshida Abdulla Oripov maktabi, Farg‘onada Erkin Vohidov maktabi, Andijonda Muhammad Yusuf maktabi, Gulistonda Halima Xudoyberdiyeva maktabi bor. Negi Samarqanda Alisher Navoiy ijod maktabini tashkil qilish mumkin emas?

- Tog‘ haqida tog‘ ulug‘vorligi, shukuhiga munosib tarzda so‘zlansha yarashadi, tepa haqida – tepega munosib! Hozir sizning savollaringizga javob beryapmanu, vujudimda katta mas‘uliyat hissadan hayojon, qalbimda qo‘rquv bor. Chunki biz butun jahoni so‘zi bilan zabt etgan buyuk shaxs haqida gapiyapmiz! Samarqandda zarqalam ahli boshqa shaharlarga nisbatan ko‘proq o‘tgan. Har birlarining ijod maktabini tashkil etasicha yarashadi.

Alisher Navoiyga kelsak, Turkiyada Maylono Jaloliddin Rumiy ijdiodi tadqiq etish markazlari, institutlar, Germaniyada Gyote ijodiyotini o‘rganish ilmiy-tekshirish instituti kabi, yana men bilimagan shunday nufuzli ilmiy dargohlar muqobilida Samarqandda Alisher Navoiy ilmiy-ijodiy meroesini o‘rganish ilmiy-tadqiqot instituti tashkil etilsa, maqsadga muvofiq deb o‘layaman. Chunki bunday ishni amalga oshirish uchun Samarqandda ilmiy muhit, g‘ayratli tadoqchilar haqida mavjud.

Hozir ko‘nglimda Hazratning: “Bilgil o‘z haddingni-yu, behad rioyat qil adab”, degan so‘zlarini takrorlab turibman. Ulug‘larimiz aytganidek “Biz bu ulug‘ shaxsni avliyo desak, u avlyiolarning avlyosi, mutafakkir desak, mutafakkirlarning mutafakkiri, shoir desak, shoirlarning sultonidir!”. Bundan orttirib, nima ham deyish mumkin? Navoiy avliyo bo‘lmasalar, Haq taolo umrilariga, ilmlariga baraka ato etib, shu kunlarga qadar nomlarini sharaflab, rahmat nurlarini yog‘dirib qo‘yarmidi! Haq taolo bizni aql ne‘matidan bahramand etib, buyuk bobokalonimiz ijodiyotini ul zoti olinning sha‘nu shavkatiga munosib tarzda o‘rganishimizni, elga yoyishimizni nasib aylasini!

Yormamat RUSTAMOV
suhbatlashdi.



MUASSIS: Samarqand viloyati hokimligi

Bosh muharrir: Farmon TOSHEV

Gazeta O‘zbekiston matbuot va axborot agentligining Samarqand viloyat boshqarmasida 2012-yil 30-martda 09-01 raqam bilan ro‘yxatga olingan. Nashr 100. Indeks 438. 14 251 nusxada chop etildi. Buyurtma 65. Hajmi 2 bosma taboq, bichimi A-2

Gazeta haftaning seshanba, payshanba va shanba kunlari chiqadi.

QABULXONA: (66) 233-91-51, REKLAMA VA E’LONLAR: (66) 233-91-56

BO‘LIMLAR: (66) 233-91-57, 233-91-58, 233-91-59, 233-91-61

MANZILIMIZ: 140100, Samarqand shahri, Ulug‘ Tursunov ko‘chasi, 80-uy, Matbuot uyi.

2025-yil 8-fevral
SHANBA

Zarafshon

Navoiyga taqlid qilgan BAHODIR YALANGTO‘SH

Samarqand Registonining asoschisi, bek Bahodir Yalangto‘sh Olchinning yetuk arbob, sarkarda va usta me’mor bo‘lib yetishishida ulug‘ shoir va mutafakkir Nizomiddin Mir Alisher Navoiyning katta o‘rni bor.

Qayd qilish kerakki, Bahodir Yalangto‘shning otasi Boyxo‘ja Alisher Navoiy faoliyatini yaxshi bilgan va ulug‘ shoiriga taqlid o‘g‘liga arabcha Nizomiddin deb ism qo‘ygan. Biroq bi yigit keyinchalik o‘zbekcha ism – Bahodir Yalangto‘sh nomi bilan shuhrat qozongan. Rasmiy hujjalarda esa Nizomiddin ismidan foydalangan. Qadimda o‘zbeklar orasida tug‘ilgan chaqaloqqa o‘zbekcha va arabcha nom berish odat bo‘lgan. Jumladan, Mirzo Ulug‘bekning, Shayboniyning, Manguberdingin o‘zbekcha ismlaridan tashqari, arabcha Muhammad ismlari ham mavjud edi.

Boyxo‘ja garchi, shayboniyar sulo-lasiga xizmat qilgan arbob bo‘lsa-da, e‘tiqdor masalasida jahriya, yassaviya tariqatlariga emas, balki naqshbandiya tariqatiga amal qilgan. O‘g‘liga Nizomiddin nomini bergan ota uning ham Alisher Navoiy mansub bo‘lgan naqshbandiya tariqatiga amal qiluvchi hukmdor bo‘lib yetishishini niyat qilgan.

Alisher Navoiy o‘zining shaxsiy daromadlari hisobidan 360 dan ko‘proq turli inshootlarni qurdigan. Ulug‘ shoirning bag‘rikeng binokor bo‘lib yetishishida uning Samarqandda yashagan davrda Ulug‘bek me’morchiligidan ilhomlangani ham o‘z so‘zini aytgan. Alisher Navoiyga taqlididan Bahodir Yalangto‘sh ham shaxsiy daromadlari hisobidan Samarqandda turli binolarni, jumladan, Sherdor va Tillakori madrasalarini soldirigan.

Bahodir Yalangto‘shning Sherdor madrasasi peshtoqiga sherlar (arslonlar) va kiyik tasvirini tushiradi. Bu masalada ham Yalangto‘sh o‘ziga ma‘ham ustoz bilgan Alisher Navoiy faoliyatiga yuzlanadi. O‘z vaqtida Alisher Navoiy mo‘yqalam sohiblari homiylik qilgan va o‘zi qurdigan binolarga turli hayvonlarning tasvirlarini chizdirgan. Jumladan, G.Pugachyovning



Erkin MUSURMONOV,
Samarqand davlat
chet tillari instituti
kafedra mudiri,
filologiya fanlari doktori.

SHU OYDA TAVALLUD TOPGANLAR

14-FEVRAL

Xolmuhammad NURULLAYEV – (1954-2006) Urgut tumanida tug‘ilgan. Jurnalist, jamoat arbobi, «Mehnat-shuhrati» ordeni sohibi.

17-FEVRAL

Akmal ORTIQOV – (1935-2016) Kattaqo‘rg‘on tumanida tug‘ilgan. Fizika-matematika fanlari doktori.

Aktam XOLMANOV – 1964-yilda Past Darg‘om tumanida tug‘ilgan. Fizika-matematika fanlari doktori, professor.

18-FEVRAL

O‘ktam ORIPOV – 1951-yilda Samarqand shahrida tug‘ilgan. Qishloq xo‘jalik fanlari doktori, professor.

Gazeta «Zarafshon» tahririyatining kompyuter bo‘limida sahifalandi.

«Noshir lux» MCHJ bosmaxonasida chop etildi.

Korxona manzili: Samarqand shahri, Spitamen ko‘chasi, 270-uy.

Bosishga topshirish vaqt: soat 18:30 da.

Bosishga topshirildi: soat 19:00

Navbatchi muharrir:

A.SHERZOLOV.

Navbatchi:

O‘.XUDOYBERDIYEV.

Sahifalovchi:

B.ABDULLAYEV.